


AQSHDA SIYOSIY PARTIYALARING YUZAGA KELISHI

**Abduvahobov Zokir***Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti talabasi**Email: abduvahobovzokir@gmail.com**Ilmiy nazoratchi: Qurbanova Nasiba*

Anotatsiya: Aksariyat odamlar Respublikachilar partiyasi va Demokratlar partiyasi haqida ko'p eshitgan. AQShda president saylovlariga oz vaqt qoldi. Respublikachilar partiyasidan Donald Tramp, demokratlardan esa Xillari Clintonning yuzma-yuz bellashishi kutilmoqda. 1868-yildan beri saylovlarda mana shu ikki partiya vakilidan biri muntazam ravishda saylanib keladi. Jami 1788-yildan beri 57 ta saylov o'tgan bo'lsa, hisob hozircha 22:22 - 22 ta saylovda demokrat nomzod, yana shuncha saylovda respublikachi nomzod g'olib bo'lган. 7 ta saylovda g'alaba qozongan nomzodlar esa Demokratik Respublikachilar partiyasiga mansub bo'lган.

Kalit so'zlar: AQSh, siyosiy partiya, nomzodlar, demokratik partiya, respublikachilar partiyasi, Libertarianlar, Yashillar partiyasi, Konstitutsion partiya, Kommunistlar partiyasi, Qaroqchilar partiyasi, saylov.

Аннотация: Большинство людей много слышали о Республиканской партии и Демократической партии. До президентских выборов в США осталось мало времени. Ожидается, что Дональд Трамп от Республиканской партии и Хиллари Клинтон от Демократической партии встретятся друг с другом. С 1868 года один из представителей этих двух партий регулярно избирался на выборах. Всего с 1788 года было проведено 57 выборов, а счет на данный момент составляет 22:22 - на 22 выборах победил кандидат от Демократической партии, и в таком же количестве выборов победил кандидат от Республиканской партии. Кандидаты, победившие на семи выборах, принадлежали к Демократической республиканской партии.

Ключевые слова: США, политическая партия, кандидаты, демократическая партия, республиканская партия, либертарианцы, партия зеленых, конституционная партия, коммунистическая партия, пиратская партия, выборы.

Annotation: Most people have heard a lot about the Republican Party and the Democratic Party. There is little time left for the presidential elections in the USA. Donald Trump from the Republican Party and Hillary Clinton from the Democrats are expected to face each other. Since 1868, one of the representatives of these two parties has been regularly elected in elections. A total of 57 elections have been held since 1788, and the score is currently 22:22 - in 22 elections, the Democratic candidate won,

and in the same number of elections, the Republican candidate won. The candidates who won 7 elections belonged to the Democratic Republican Party.

Key words: USA, political party, candidates, democratic party, republican party, libertarians, green party, constitutional party, communist party, pirate party, election.

AQShda siyosiy partiyalarning yuzaga kelishi

Demokratik partiyaga 1828-yilda, 188-yil avval asos solingan. Bugungi kunda 43 milliondan ziyod a'zosi bor. Ramziy rangi - ko'k, emblemasi - xo'tik. Amaldagi Prezident Barak Obama - demokrat. AQSh Senatida 100 a'zodan 45 tasi, Kongress Vakillar Palatasining 435 a'zosidan 188 tasi, 50 ta gubernatordan 18 tasi demokrat.

Amerikaning 15 ta prezidenti shu partiya a'zolari bo'lgan.

Demokratlar kuchli ijtimoiy muhofaza va ijtimoiy dasturlar, davlatning iqtisodiyotdagi ustuvor roli, liberal g'oyalar, boylarga soliqlarni ko'tarish, universal tibbiy sug'urta, mudofaa uchun xarajatlarni qisqartirish, ayni jins vakillari o'rtasida nikoh, qurol nazoratini kuchaytirish, noqonuniy immigrantlarga fuqarolik uchun yo'l ochish, minimal ish haqini oshirish tarafdori, tashqi siyosatda inson huquqlariga alohida e'tibor beradi.

Amerikaning xorijdagi urushlariga kelganda demokrat qonunchilarning fikri bo'lingan. Masalan, 2002-yilda Iroqqa qo'shin tortish masalasi ovozga qo'yilganida 110 noib uni qo'llab-quvvatlagan, 147 nafari esa qarshi chiqqan. O'sha paytda senator bo'lgan Xillari Clinton urushga ovoz bergenlardan. Biroq Eron bilan yadroviy kelishuv masalasida demokratlar yakdil.

Amerikada qora tanlilar va latinolar odatda saylovlarda demokratlarga ovoz berib keladi. Mamlakatda katta moliyaviy va siyosiy kuchga ega yahudiy saylovchilar ham shunday.

Respublikachilar partiyasi shu yil mart oyida 162 ga to'ldi. 30 milliondan ziyod a'zosi bor. Ramziy rangi - qizil, emblemasi - fil. AQSh Senati va Vakillar palatasida respublikachilar ko'pchilikni tashkil etadi - Senatda 100 a'zodan 54 tasi, Kongress quyi palatasida esa 435 a'zodan 247 tasi, 50 ta gubernatordan 31 tasi respublikachi.

Respublikachilar partiyasi Amerikaga 18 ta prezident berdi. Birinchisi Avraam Linkoln edi. Boshqa taniqli respublikachi prezidentlardan Richard Nikson, Ronald Reygan, to'ng'ich Jorj Bushni tilga olasi bo'ladi.

Respublikachilar markaziy hukumatning ixchamroq bo'lishi, shtatlarga kattaroq rol berilishi tarafdori, davlatning xususiy biznes ishiga aralashishiga qarshi. Partiya konservativ qarashlarni yoqlaydi, xoh iqtisodiyotda bo'lsin, xoh siyosatda. Erkin bozor, individuallik, kuchli armiyani, an'anaviy oilaviy munosabatlar, qurolga egalik qilish huquqini qo'llab-quvvatlab, soliqlar va minimal ish haqini oshirishga, davlat tibbiy sug'urtasiga, ijtimoiy dasturlar, abort, noqonuniy immigrantlarning fuqaro bo'lishiga yetaklovchi tashabbuslar, besoqlbozlikka qarshi. Respublikachi

qonunchilar 2001-yilda Afg'onistonga, 2003-yilda Iroqqa qo'shin kiritish taklifini yoqlagan.

Respublikachilar odatda dindorroq bo'ladi. Isroiilga munosabatga kelganda demokrat va respublikachilar qarashlarida farq yo'q - barchasi bir ovozdan yahudiy davlatini cheksiz qo'llab-quvvatlaydi.

So'nggi respublikachi prezident kenja Jorj Bush bo'lgan. Shundan beri partiya faollari o'z vakilini Oq uyg'a qaytarishga behuda urinmoqda. Avval 2008-yilda senator Jon Makkeyn demokratlardan yosh nomzod, senator Barak Obamaga yutqazdi, so'ng Obama 2012-yilda Massachusetts gubernatori Mitt Romnini dog'da qoldirdi.

Ayrim respublikachilarining bu yilgi umidi Jeb Bush ishonchni oqlay olmadi. U saralash bosqichida juda bo'sh keldi. Biroq yaqindan beri o'zini respublikachi deb e'tirof etgan tadbirkor Donald Tramp kutilmaganda haqiqiy respublikachi da'vogarlarni poygadan chiqishga majbur qilib, partiyadan prezidentlikka rasmiy nomzod bo'lishga yaqin turibdi. Biroq respublikachilarining Trampga munosabati bo'lingan.

AQShda Respublikachi va Demokratlar partiyalaridan tashqari boshqa siyosiy guruhrar ham bor. Bular Libertarianlar, Yashillar partiyasi, Konstitutsion partiya, Kommunistlar partiyasi va yana 31 ta partiya bor. Qaroqchilar partiyasi va Marixuana partiyasi shular jumlasidan. Bularning barchasi mayda, mahalliy guruhrar bo'lib, saylov natijalariga umuman ta'sir qilmaydi. Ammo libertarianlar va yashillar asosiy da'vogarlardan 10 foizgacha olib qo'yishi mumkin.

Masalan, yaqinda o'tkazilgan ommaviy so'rov natijasidan ma'lum bo'lishicha, Libertarian partiyadan bu yilgi saylovga nomzodi tasdiqlangan Garri Jounsga bugun saylovchilarining 10-12 foizi ovoz bergen bo'lardi. Libertarianlar siyosiy qarashlari bo'yicha demokratlarga yaqinroq bo'lgani uchun bu demokratik nomzoddan 10 foiz o'g'irlandi degani. Yana bir uchinchi partiya vakili Jill Stayn Jonson kabi bu yili ham saylovda qatnashmoqchi.

So'nggi bir necha o'n yildan beri prezident saylovlarida g'alaba qozonmasa-da, demokrat va respublikachi nomzodlar bilan uchinchi partiyalar vakillari ham bellashib keladi.

Demokratik partiyadan nomzod Xillari Clinton eng ko'p delegatlar ovozlarini qo'lga kiritishi ketidan Berni Sandersning poygadan chiqishi ayonlashar ekan, Jill Stayn Sandersga yashillar bilan birga saylovda qatnashishni taklif etdi.

Libertarian partiyaning ham, Yashillar partiyasining ham qarashlari demokratlarnikiga yaqinroq bo'lgani uchun, ayrim kuzatuvchilar nazarida, Stayn va Jonson Klintonga berilishi mumkin bo'lgan ovozlarni olib qo'yib, Donald Trampga ustunlikni ta'minlashda bilvosita yordam berishi mumkin. Shuning uchun odatda democrat nomzodlar uchinchi partiyalardan da'vogarlarni xush ko'rmaydi.

Masalan, 2000-yil saylovlarida demokratlar o'z nomzodi Albert Gorning respublikachi Jorj Bushga yutqazganida qisman Yashillar partiyasidan nomzod Ralf Neyderni ayblagan edi. O'shanda Gor Bushga atigi 537 ovoz boy bergen edi, xolos. Neyder esa salkam 98 ming saylovchining ovozini olgan edi. Uning javobi shuki, saylovda hamma raqib va bir-biridan ovoz olishi tabiiy hol. "Balki, Gor o'shanda mendan ovozlarni olgandur", deydi Neyder. Uning aytishicha, 2000-yil saylovlari taqdiri hal bo'lган Florida shtatida 250 ming demokrat respublikachi Bushga ovoz bergen edi. "Bu haqda nega gapirmaysizlar" deydi Neyder.

Uchinchi partiyalardan nomzodlar haqida hatto amerikaliklar ham to'liq xabardor emas, chunki matbuot ularga yetarlicha e'tibor qaratmaydi, markaziy televizion stansiyalar uyuştiradigan debatlarga taklif etilmaydi.

Maxsus komissiya belgilagan qoidaga ko'ra, mamlakat bo'ylab o'tkazilgan besh so'rovda kamida 15 foiz to'plagan hamda saylovda g'alaba qozonish ehtimoli mavjudligini ta'minlash uchun yetarlicha shtatlarda saylov qog'oziga ismini tushira olgan nomzodgina milliy teledebatlarda qatnashishi mumkin.